

BANK HISOBVARAG'INI OCHISH, UNGA XIZMAT KO'RSATISH VA YOPISH BO'YICHA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1 Mazkur oferta shartnomasi Mijoz tomonidan bank hisobvarag'ini ochish to'g'risidagi Bank tomonidan o'rnatilgan shakldagi ariza, shuningdek O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari talablariga muvofiq hisob raqam ochish uchun kerak bo'lган zarur hujjatlar taqdim etilganidan so'ng Taraflar uchun majburiy ahamiyat kasb etadi.

1.2. Bank hisobvarag'ini ochish, unga xizmat ko'rsatish va yopish ommaviy oferta shartnomasi bankda bank hisobvarag'ini ochish, unga xizmat ko'rsatish va yopish tartibini belgilaydi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq Mijozga hisob-kitob va kassa xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha Taraflarning munosabatlarini tartibga soladi.

2. TOMONLARNING MAJBURIYATLARI

2.1. Bankning majburiyatlari:

2.1.1. Mijozga kompleks hisob-kassa xizmatlarini ko'rsatish va uning yozma topshirig'iga ko'ra amaldagi qonunlarga, Mijozning Ustaviga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan barcha hisob va kassa operatsiyalarini amalgalash oshirish, shu jumladan:

- a) kelib tushgan pul mablag'larini Mijozning hisob raqamiga kiritish;
- b) Mijozning topshirig'iga ko'ra pul mablag'larini unga tegishli bo'lgan bir hisob raqamidan boshqa hisob raqamiga yoki boshqa shaxsning hisob raqamiga o'tkazish;
- v) Mijoz hisob raqamida pul mablag'lari mavjud bo'lgan taqdirda, kerakli to'lov hujjati bankka kelib tushgan kunning ertasidan kechiktirmasdan to'lovnini amalga oshirish;
- g) to'lov talabnomasiga asosan Mijozga tegishli bo'lgan mablag'ni boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan undirib olish to'g'risidagi topshirig'ini bajarish;
- d) Mijozga naqd pul berish yoki qabul qilib olish.

Hisob-kassa xizmati ko'rsatishga bevosita taalluqli bo'lмаган boshqa xizmatlar ko'rsatish (kreditlash, faktoring lizing xizmati, qimmatli qog'ozlarni saqlash va joylashtirish, kafolat va boshqa operatsiyalar) Bank tomonidan alohida tuziladigan shartnomalar asosida amalgalash oshiriladi.

2.1.2. Mijozga dam olish kunlaridan tashqari har kuni belgilangan xizmat ko'rsatish jadvaliga muvofiq soat 8-30 dan 16-30 gacha xizmat ko'rsatadi.

2.1.3. Pul mablag'ini faqatgina mijozning topshirig'i bilan yoki uning ruxsati bilan bankka tegishli hisob hujjatlari kelib tushgan kuni uning hisob varag'idan ko'chiradi. Mijozning hisob varag'ida pul mablag'lari bo'lмаган yoki kam bo'lgan holda bank to'lanmagan summani kartoteka-2 ga amalda belgilangan tartib qoidalarga muvofiq joylashtiradi.

Mijozning hisobvarag'idagi pul mablag'larini bank tomonidan uning ruxsatisiz ko'chirish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida ko'zda tutilgan hollardagina amalgalash oshirishga ruxsat etiladi.

2.1.4. Mijozning topshirig'iga asosan amalga oshiriladigi hisob-kitob operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi hududida amal qilinayotgan naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish qoidalariga qat'iy rioya etgan holda amalga oshiriladi.

2.1.5. To'lov hujjatlarini qabul qilish vaqtida barcha zarur rekvizitlarning to'g'riliqini tekshiradi va to'lov topshiriqnomasi bankka kelib tushgan kuni pulni ko'rsatilgan hisob varaqdan o'tkazadi.

2.1.6. Mijozni hisob-kassa hujjatlari, ya'ni chek daftarchasi, naqd pullar kirimiga bildirishnomalar va to'lov uchun boshqa bank blankalari bilan ta'minlaydi.

2.1.7. Mijozning talablariga binoan uning o'ziga yoki vakolatli shaxsiga zarur hujjatlar ilovasi bilan birgalikda hisobvaraq ko'chirmasini beradi (tanlangan tarif rejaga muvofiq xizmat haqi undirilishi mumkin).

2.1.8. Mijozning hisobvarag'i to'g'risidagi operatsiyalarini sir tutadi. Mijozning ruxsatisiz hisobvaraq operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar uchinchi shaxslarga faqatgina amaldagi qonunlarda ko'zda tutilgan hollardagina beriladi.

2.1.9. Mijozga bevosita hisob-kassa xizmatlari bilan bog'liq bo'lgan hisobvaraq, bank xizmatlari, hujjatlar bilan ishslash qoidalari va boshqa savollar yuzasidan maslahatlar beradi.

2.1.10. Mijozning hisobvarag'idagi pul mablag'larini saqlanishini ta'minlaydi.

2.1.11. Hisobvaraqa pul mablag'lari bor bo'lgan holda va to'lash to'g'risida bandlar (bronlar) bo'lgan holda maosh, nafaqa va yordam pullarini berish uchun naqd pulni to'lashni ta'minlaydi.

2.1.12. Xo'jalik sudining qaroriga asosan kelib tushgan to'lov hujjatlarining bajarilmaganligi to'g'risida 3 (uch) kun ichida xabar beradi, javobgarga boshqa bankda xizmat ko'rsatilsa, unda to'lovchi bankdan javob olingandan so'ng xabar beriladi.

2.1.13. Bank tomonidan Mijozning bank hisobvarag'i bo'yicha amaliyotlar to'xtatib turilganda, bank amaliyoti to'xtatilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan xolda Mijozga uning hisobvarag'iga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan xabarnoma yuboriladi. Bunda xabarnoma Mijozga yozma ravishda, pochta yoki elektron aloqa vositalari, SMS xabarnoma va boshqa kommunikatsiya kanallari orqali yuborilishi mumkin. Xabarnomani olish usuli Mijoz tomonidan mustaqil ravishda tanlanadi.

2.1.14. Majburiyatlarni bajarish kechiktirilgan yoki buzilgan hollar uchun bank ushbu shartnomaning 5-chi bo'limida ko'zda tutilgan tartibda javobgardir.

2.2. Mijozning majburiyatlari:

- Hisobvaraq ochish va unda amaliyotlarni olib borish uchun lozim hujjatlarni belgilangan tartibda bankka taqdim etish;

- O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlariga, mijozning Ustav qoidalari va boshqa me'yoriy hujjatlarga qat'iy amal qilgan holda bankdagi talab qilib olinguncha va depozit hisobvarag'idan to'lovlarini amalga oshirish;

- Bankda belgilangan ish tartibi, rasmiylashtirish tartibi va to'lov hujjatlarini taqdim etish qoidalari amal qilish;

- O'zining talab qilib olingunga qadar asosiy depozit hisobvarag'ida Bank oldidagi to'lovlarini ta'minlash uchun yetarli pul mablag'iga ega bo'lish;

- Hisobvaraqa pul mablag'i bo'lgan holda kalendar jadvaliga muvofiq maoshlar, nafaqa va yordam pullarini to'lash uchun chekni bankka taqdim etish va olingen pullarni belgilangan maqsadlar uchun ishlatish;

- O'z hisobvarag'iga begona pul mablag'i kelib tushgan taqdirda o'zining hisobvarag'i to'g'risidagi ko'chirmani (yoki o'zining hisobvarag'i holati to'g'risidagi ma'lumotni) olgan kundan boshlab 2 (ikki) kun ichida bankka xabar berish;
- Ushbu shartnomaning 4 (to'rtinch) bo'limida ko'zda tutilgan miqdorda va tartibda bank xizmatlari uchun bankka to'lovlar to'lash;
- Bank talabiga muvofiq hamda zaruriyat tug'ilganda amaldagi qonunchilik asosida boshqa davlatlar sub'ektlari bilan tuzilgan shartnomalar yuzasidan amalga oshirilgan eksport-import operatsiyalari to'g'risidagi barcha hujjatlar va ma'lumotlarni bankka taqdim etish;
- Mijozning ta'sis hujjatlari, guvohnomasi, nomi, xodimlari, pasport ma'lumotlari, manzili, telefon raqami va zarur boshqa rekvizitlari o'zgargan taqdirda 3 (uch) kun ichida bankka yozma tarzda xabar berish;
- Deponentga o'tkazilgan ish haqi, maosh va yordam pullarini bankning kassasiga 3 (uch) kun ichida qaytarib topshirish;

3. TOMONLARNING HUQUQLARI

3.1.Bankning huquqlari:

- Mijoz tomonidan amaldagi qonunlarni hamda Markaziy bank me'yoriy hujjatlarini, shu jumladan hisobraqam hujjatlarini rasmiylashtirish va ularni Bankka taqdim etish muddati buzilganligini tasdiqlovchi dalillar bor bo'lgan taqdirda aniqlangan kamchiliklar bartaraf etilgunga qadar hisob va kassa operatsiyalarini bajarishdan voz kechish;
- Mijozning hisobraqamidagi pul mablag'larini uning rozilgisiz budget, budgetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar yoki amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa to'lovlargacha ko'chirish;
- Hisob-kassa hujjatlarining haqiqiyligiga aniq shubha uyg'onganda ushbu holat to'g'risida Mijozning birinchi yoki ikkinchi imzo huquqiga ega bo'lgan mas'ul shaxsiga xabar bergan holda aniqlangan xato-kamchiliklar to'liq bartaraf etilmagunga qadar bank operatsiyalarini bajarishdan voz kechish;
- Mijoziarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarini O'zbekiston Respublikasining "Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuniga va ichki nazorat qoidalariiga muvofiq to'xtatib turish yoki ularni bajarishni rad etish.

3.2. Mijozning huquqlari:

- O'zining hisob raqamidagi pul mablag'larini amaldagi qonunchilikda ko'zda tutilgan doirada mustaqil boshqarish;
- Bankka hisob-kassa xizmatlari yuzasidan topshiriqlar va inkassa yuzasidan so'rovnomalar berish, topshiriqlarning o'z vaqtida bajarilishini talab qilish;
- Talab qilib olingunga qadar asosiy depozit hisob raqamida pul bo'lgan holda va bronlar bo'lgan holda ish haqi to'lash grafigiga muvofiq amaldagi qonunchilik doirasida naqd pul olish;
- Bankning aybi bilan yuzaga kelgan zararlarni belgilangan tartibda to'ldirishni talab etish;
- Zarurat tug'ilganda bankdan naqd pulsiz hisob-kitoblar va o'zgartirishlar to'g'risida ma'lumotlarni olish;

4. BANK XIZMATIGA HAQ TO'LASH MIQDORI VA TARTIBLARI

4.1. "DAVR BANK" XATB Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan bank xizmatlari uchun haq to'lash tarifiga muvofiq, mijozga ko'rsatiladigan xizmatlari uchun haq - operatsiyalarning turlariga bog'liq holda to'lanadi (Tarif kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga qo'shilish shartnomaga ilova qilinadi va shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi).

4.2. Bank ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovning miqdori va tartibiga mijoz bilan yozma kelishuv asosida o'zgartirish va qo'shimchalar kiritadi.

4.3. Bank tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlarni undirish bank tomonidan amaldagi qonun hujjatlari doirasida har qanday yo'sinda amalga oshiriladi.

4.4. Qachonki operatsiyalarni bajarish qo'shimcha ish hajmini talab qilsa, bank o'zaro kelishilgan holda maxsus va qo'shimcha komissiya tuzish huquqiga ega.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Mazkur shartnomada belgilangan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.2. Bank mijozning hisob raqami bo'yicha operatsiyalarni o'z vaqtida va to'g'ri amalga oshirilishi uchun javobgardir.

5.3. Bank tomonidan ish xaqi va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ehtiyojlar uchun o'z vaqtida naqd pul bermaganlik uchun Mijozga, shu jumladan, tadbirdorlik sub'ektlariga ular hisobvaraqlarida mablag' bo'lganida bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,005 foizi miqdorida jarima to'laydi.

5.4. Bank qonun hujjatlarida o'rnatilgan Mijoz hisobvaraqlariga pullarni hisobga kiritish va hisobdan chiqarish tartibini buzganlik uchun, elektron to'lovlarni amalga oshirishning va xato amalga oshirilgan elektron to'lovlarni qaytarishning o'rnatilgan muddatlarini buzishni istisno etgan holda, bank har bir holat uchun bank ustav kapitali eng kam miqdorining 0,01 foizi miqdorida jarima to'laydi.

Elektron to'lovlarni amalga oshirishning qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarini bank tomonidan buzilgan taqdirda, u Mijozga kechiktirilgan har bir kun uchun kechiktirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin kechiktirilgan elektron to'lov summasining 10 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda penya to'lashi shart.

Bankning aybi bilan elektron to'lov noto'g'ri amalga oshirilgan taqdirda, u mablag'ni xatolik aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan oluvchining hisobvarag'iga o'tkazishi shart. Aks holda, Mijoz bankdan mablag'larni qaytarishni, shuningdek kechiktirilgan har bir kun uchun noto'g'ri amalga oshirilgan elektron to'lov summasining 0,1 foizi miqdorida, lekin noto'g'ri amalga oshirilgan elektron to'lov summaning 10 foizidan ko'p bo'limgan miqdorda penya to'lashni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda talab qilish huquqiga ega.

5.5. Mijoz o'z hisob-kitob operatsiyalarining qonuniyligi va olingan pul mablag'larining belgilangan maqsadda foydalaniishi yuzasidan amaldagi qonunchilikka asosan mustaqil javobgar hisoblanadi.

5.6. Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, mijoz kreditorga to'lashi shart bo'lган menyani o'tkazish va undirish yuzasidan bank javobgar xisoblanmaydi.

6. FORS-MAJOR HOLATLAR

5.7. Bank hisobvarag'i ochilgandan so'ng yuzaga kelgan suv toshqini, yong'in, tabiiy ofat, embargo, harbiy harakatlar oqibatida taraflar ushbu shartnomada belgilangan o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmasliklari javobgarlikka sabab bo'lmaydi.

5.8. Bank quyidagi holatlarda ham javobgarlikdan ozod etiladi:

- banklararo elektron to'lovlar tizimi buzilganda;
- mijoz tomonidan amaldagi qonunlarda belgilangan talablarga mos kelmaydigan to'lov hujjatlari taqdim qilinganda;
- amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda bank hisob raqami yoki mijozning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalari to'xtatib qo'yilganda.

7. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI, UNI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

7.1. Ushbu xizmat Mijoz tomonidan kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga qo'shilish shartnomasiga imzo qo'ygandan va bank hisobvarag'i ochish uchun ariza berilgandan so'ng kuchga kiradi va nomuayyan muddatga amal qiladi.

7.2. Mazkur shartnomaga kiritilishi mumkin bo'lган barcha o'zgartirish va qo'shimchalar tomonlarning yozma kelishuviga asosan amalga oshiriladi.

7.3. Bank hisobvarag'ini ochish, unga xizmat ko'rsatish va yopish bo'yicha ommaviy oferta shartnomasi budjet, berilgan kreditlar, kreditlardan foydalanilganlik uchun foizlar, jarimalar yuzasidan qarzlar bo'lмаган holda hamda bank oldida mijozning boshqa majburiyatları bo'lмаган taqdirda, Mijozning yozma arizasiga binoan bekor qilinadi va hisobvaraq yopiladi.

7.4. Mijozning hisobvaraqnı yopish uchun ariza taqdim qilingandan so'ng 7 (yetti) kun ichida bank mijozning hisob raqamini yopadi va mijozning arizasiga binoan qolgan pullarni boshqa hisob raqamga o'tkazadi.

7.5. Agar 6 (olti) oy ichida mijozning shaxsiy hisob raqamida va 1 (bir) yil ichida davlat korxonalari, qo'shma korxonalar va boshqa hisob raqamlarda operatsiyalar amalga oshirilmasa, bankning talabi bo'yicha shartnoma sud tartibida bekor qilinishi mumkin.

7.6. Yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarga kompleks bank xizmatlarini ko'rsatish qoidalariga qo'shilish shartnomasining to'xtatilishi yoki bekor qilinishi mijozning hisob raqamini yopish uchun asos hisoblanadi.

8. SHARTNOMANING BOSHQA SHARTLARI

8.1. Ushbu shartnomani bajarish bo'yicha bank va mijoz o'rtasida kelib chiqqan kelishmovchiliklar taraflarning o'zaro kelishuvi asosida amaldagi qonunchilik doirasida hal etiladi. Mijozning boshqa shaxslar bilan hisob-kitobi yuzasidan o'zaro shikoyatlari bankning ishtirokisiz ko'rib chiqiladi.

8.2. Tomonlar mazkur shartnomada ko'rsatib o'tilmagan va kelib chiqqan barcha munosabatlarni (nizolarni) amaldagi qonun hujjatlariga tayangan holda hal etadilar.

Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo sud tartibida hal etiladi.

8.3. Mijozning hisob raqami bo'yicha olib boriladigan operatsiyalarining tartibi taraflar uchun majburiy bo'lgan Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari tomonidan belgilanadi.